

Hafta davomida 337 nafar fuqaro bilan telemuloqot o'tkazildi

Murojaatlar bo'limi xodimlari joriy yilning 3-6 oktyabr kunlari **Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya, neyroxirurgiya, onkologiya va tibbiy radiologiya, dermatovenerologiya va kosmetologiya, terapiya va tibbiy reabilitasiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarida, Respublika teri-tanosil kasalliklari klinik shifoxonasida, Qoraqalpog'iston Respublikasi Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi filialida, Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasida, Farg'ona viloyati Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi filialida, Farg'ona viloyati Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi filialida, Samarqand viloyati Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi filialida, Jizzax viloyati viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazida, Samarqand davlat tibbiyot universiteti ko'p tarmoqli klinikasida, Navoiy viloyati Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi filialida, Orolbo'yi mintaqasi ixtisoslashtirilgan kardiologiya va kardioxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida** imtiyozli yo'llanma bilan davolanib chiqqan 255 nafar bemor bilan tibbiy yordamni baholash, tibbiy yordam sifati va hajmi yuzasidan telemuloqotlar o'tkazdi.

Natijada imtiyozli yo'llanma bilan davolanib chiqqan **13(5,1%) nafar fuqaro shifokorlar qarovi va davolash sifatidan, qabulxonadagi hamshiralar muomalasidan, dori vositalarini o'z hisobidan sotib olganligi, shifoxona sharoitidan hamda oziq-ovqatlar sifati** yuzasidan o'zlarining e'tirozlarini bildirgan bo'lsada **Jamg'armaga yozma murojaat qilmasligini bildirdi.**

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi ishonch telefon(99 353 93 54, 94 353 93 54)lariga **82 nafar** fuqarolardan murojaatlar kelib tushdi. Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo'lgan fuqarolarga Sog'liqni saqlash vazirligi yuboradigan **"sms" xabarnoma, jamg'arma faoliyati va fuqarolarning shifoxonalar yuzasidan og'zaki e'tirozli hamda minnatdorchilik murojaatlari** bo'ldi.

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi ishonch telefonlariga hafta davomida fuqarolardan 4(4,9%)ta minnatdorchilik murojaati bo'ldi.

Shulardan:

Toshkent shahar Yashnobod tumanida yashovchi imtiyozga ega fuqaro Bolalar milliy tibbiyot markazi shifokorlari **imtiyozli yo'llanma bilan qabul qilmayotganligi,** Jizzax viloyati Zomin tumanida yashovchi fuqaro otasini Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy markazi filialida imtiyozli yo'llanma bilan davolanish davrida **dori vositalari va tibbiy jihozlar uchun o'z hisobidan pul**

mablag'lari sarflayotganligi, Andijon viloyati Shahrixon tumanida yashovchi fuqaro Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasida imtiyozli yo'llanma bilan davolanish davrida dori vositalari uchun ***o'z hisobidan pul mablag'lari sarflayotganligini bildirib, og'zaki e'tiroz bildirdi.***

Yuqoridagi holatlar bo'yicha Jamg'armaning hududiy bo'linma va bosh mutaxassislariga hamda tibbiyot muassasa rahbariyatiga fuqarolarning ma'lumotlari telefon orqali berildi, fuqarolar murojaatlari bo'yicha qaysi tashkilotga murojaat qilish kerakligi tushuntirildi, og'zaki e'tirozli murojaatlar o'z vaqtida bartaraf qilindi.

Andijon viloyati Xo'jaobod tumanida yashovchi fuqaro farzandi Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasida imtiyozli yo'llanma bilan davolanish davrida ***shifokorlar qarovidan hamda shifoxona sharoitidan minnatdor bo'lib shifoxona shifokorlariga va Jamg'arma rahbariyatiga o'z minnatdorchiligini bildirib og'zaki murojaat qildi.***

Murojaatlar bilan ishlash bo'limi xodimlari hafta davomida umumiy ***337 nafar*** fuqarolar bilan telemuloqotda bo'ldi.

**Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi
Matbuot xizmati**